butun 175 yillik kuzatuv tarixidagi eng issiq yil sifatida qayd etilgan. Shuningdek, atmosferadagi karbonat anhidrid konsentratsiyasi so'nggi 800 ming yil ichida eng yuqori darajaga yetgan. Oxirgi o'n yillik esa insoniyat tarixidagi eng issiq o'n yil bo'lgan [18]. Bu holat shuni anglatadiki, xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, ekologik muammolar tobora chuqurlashmoqda. O'zbekiston ham global ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qilib, 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarining YAIM birligiga nisbatan solishtirma miqdorini 2010-yil darajasidan 10 foizga kamaytirish majburiyatini olgan [3]. Shu asosda mamlakatimizda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va tabiiy ekotizimlarni asrashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli¹ Farmoni qabul qilinib, uning 3 yo'nalishi atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslaridan samarali foydalanishga, 2 yo'nalishi esa yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan. Strategiyada 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy quvvatini 25 ming MVtga yetkazish hamda ularning umumiy energiya iste'molidagi ulushini 40 foizga yetkazish belgilangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish – atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim shartidir. Bu jarayonda bevosita soliqlar muhim vosita bo'lib, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish hamda ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyotni soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atrof-muhitni himoya qilish hamda yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqlarning ahamiyati va ularning ta'siri ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Jumladan, Gou va Vang qarashlariga ko'ra, atrof-muhit soliqlari hukumat uchun daromad manbai bo'lib, ekologik texnologiyalarni talab qiluvchi innovatsiyalarni rivojlantiradi hamda yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Shuningdek, mazkur soliqlar hukumat daromadlarini oshirgan holda, tabiatga yetkazilgan zararlarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsiyalarni rag'batlantiradi [8]. Bundan tashqari, Dogan va hammualliflarining ta'kidlashicha, qazib olinadigan yoqilg'ilarga soliq joriy etilishi natijasida energiya narxлари oshadi va unga bo'lgan talab kamayadi. Talabdagi bu pasayish esa issiqxona gazlari ajratmalarining qisqarishiga va ekologik muhitning sog'lomlashuviga olib keladi [9]. Porter va Van der Lindening fikricha, atrof-muhit soliqlari ikki tomonlama foyda konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, "innovatsion kompensatsiya" g'oyasini ilgari suradi. Ularning fikriga ko'ra, ushbu soliqlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham yaxshilashi mumkin [10]. S.Arogundade va A.S.Hassan tomonidan olib borilgan tadqiqotda 37 ta iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo mamlakatlar misolida atrof-muhit soliqlari va qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishning yashil iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Ularning tavsiyalariga ko'ra, yashil o'sishga erishmoqchi bo'lgan davlatlar yillik atrof-muhit solig'i miqdorini YAIMning 2,5 – 3,5 foizi oralig'ida saqlab turgan taqdirda bu maqsadga erishishlari mumkin. Biroq atrof-muhit solig'i qisqa muddatda darhol ijobiy samara bermasligi sababli, ushbu soliqlarni bosqichma-bosqich joriy etish sanoat tarmoqlari va iste'molchilarga moslashish uchun yetarli vaqt yaratib beradi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish yashil iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, bunday strategiyalarni milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada muvofiqlashtirish dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar ushbu soliqlar hisobidan tushgan mablag'larni energiya tejankor dasturlarni moliyalashtirish, yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini kengaytirish hamda ekologik muhofaza loyihalariga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa, aylanma iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirish bilan birga, soliqlarning iqtisodiyot va ekologiyaga bo'lgan ijobiy ta'sirini optimallashtiradi [11]. Hao va hammualliflarining tadqiqotida esa rivojlangan mamlakatlar misolida panel baholash metodologiyasi asosida atrof-muhit soliqlari va qayta tiklanuvchi energiyaning karbonat anhidrid (CO₂) chiqindilariga ta'siri tahlil qilingan. Ularning natijalariga ko'ra, ushbu omillar CO₂ chiqindilarini kamaytirishda hamda tabiiy muhit sifatini yaxshilashda samarali hisoblanadi [12]. S.Sarigul va B.Topçularning izohlariga ko'ra, atrof-muhit solig'i – tabiat ifloslanishini kamaytirish, atmosfera sifatini yaxshilash va ekologik jihatdan xavfsiz iqtisodiy faoliyat turlarini rag'batlantirish vositasidir [13]. Hsu boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi esa sanoatlashtirilgan sohalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhit soliqlari bilan birga innovatsiyalarni tatbiq etish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi [14]. Jahon banki esa atrof-muhit solig'i islohotlarini siyosatning asosiy instrumenti sifatida ko'rib, ular barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishini, ichki resurslarni safarbar etish samaradorligini oshirishini, kamxarajatli va past-uglerodli transformatsiyani qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi [21]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti esa atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarni soliqqa tortish orqali iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va ifloslanish muammolariga

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>




qarshi kurashishda muhim vosita sifatida foydalanishni taklif etadi. Shu bilan birga, atrof-muhit soliqlari budjet daromadlarini safarbar etish hamda ularni ijtimoiy maqsadlarga qayta taqsimlashda ham muhim rol o'ynashi mumkin [22]. Tashkilot tomonidan o'rganilgan 52 ta mamlakat iqtisodiyoti ichida 25 tasida, ya'ni deyarli yarmida, atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan 55 turdagi investitsiyalar uchun foyda solig'i imtiyozlari mavjud. Ularning 25 foizida shamol, quyosh, gidroenergetika va geotermal energiya manbalariga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus soliq imtiyozlari joriy etilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish chiqindilarni kamaytirishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [17].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bevosita soliqlar asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni tadqiq qilish davomida kuzatuv, statistik guruhlash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, deduksiya hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-sonli² qarori tasdiqlanib, uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi [3]. Shuningdek, 2022-yilda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi, harakatlar rejasi, shuningdek, sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi ishlab chiqildi [4]. Bundan tashqari, 2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinib, ushbu yilda tabiatni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar aniq belgilandi [5]. Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlarga erishishda atrof-muhit soliqlari muhim rol o'ynaydi. Bu soliqlar iqlim o'zgarishining oldini olish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo'lida davlat siyosatining eng samarali vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Atrof-muhit soliqlari, shuningdek, tabiatga zarar yetkazuvchi faoliyatlarni cheklash bilan birga, korxonalarni yangi, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etishga undaydi. Bu esa yashil innovatsiyalarning rivojlanishiga turtki beradi. Bundan tashqari, ushbu soliqlar orqali tadbirkorlar soliq xarajatlarini to'lash o'rniga yashil yechimlarni tanlashga undaladi. Bu yondashuv iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda uzoq muddatli va barqaror instrument sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, atrof-muhit soliqlari korxonalarning tabiiy resurslarga asoslangan energiya iste'molini qisqartirib, ularning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishini rag'batlantiradi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonida tabiatga yetkaziladigan salbiy ta'sir sezilarli darajada kamayadi. Atrof-muhit soliqlarining atmosfera barqarorligi va yashil iqtisodiyotga ta'siri quyidagi rasmda grafik shaklida keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Atrof-muhit soliqlarining atrof-muhit barqarorligiga ta'siri [16].

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



Ma'lumki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bevosita soliqlar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bevosita soliqlar tarkibiga foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiradi. Ushbu soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 33,0 % ni tashkil qiladi. Bevosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbasi bo'lishi bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish esa yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston har yili uglevdorod energiyasi – ya'ni neft, gaz va ko'mirdan foydalanish hisobiga yalpi ichki mahsulotining qariyb 4,5 foizini yo'qotmoqda. Bu holat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarining yarmi eskirganiga qaramay, ularni tiklash yoki modernizatsiya qilish katta moliyaviy resurslar talab etishini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, yashil energiyaga o'tish ekologik jihatdan samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor yechim hisoblanadi [19]. Bugungi kunda yashil energiyani rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib, bu yo'nalishda bevosita soliqlardan samarali foydalanish zarurdir. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirishga qaratilgan mexanizmlar bevosita soliqlar asosida yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, 2023-yil fevral oyidan boshlab qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari asosida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini umumiy elektr tarmog'iga sotishdan olingan foyda foyda solig'idan ozod etildi [6]. Ushbu imtiyoz 2025-yildan boshlab 0 % stavkaga o'zgartirildi va doimiy imtiyoz sifatida Soliq kodeksiga kiritildi [1]. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga nisbatan taqdim etilgan bevosita soliq imtiyozlari, ularning turlari, xususiyatlari va amal qilish muddatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun bevosita soliqlardan taqdim etilgan soliq imtiyozlari.


№	Bevosita soliqlar	Soliq to'lovchilar	Soliq imtiyozi		
			turi	xususiyati	muddati
1	Foyda solig'i	Yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar	0% stavka	quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari asosida elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda	3 yil
				quvvatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi elektr energiyasini saqlash tizimi mavjud quyosh panellari asosida elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda	10 yil
2	Aylanmadan olinadigan soliq				
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Jismoniy shaxslar	jami daromad tarkibiga kiritilmaydi	subsidia to'lovlari	

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan olingan foyda bo'yicha foyda solig'idan imtiyozlar joriy etilgan. Biroq, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha ushbu subyektlarga imtiyoz taqdim etilmagan. Shu bilan birga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar subsidiya mexanizmlari orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-444-sonli³ qaroriga muvofiq, yashil iqtisodiyotga o'tish hamda elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalari tarmog'ini shakllantirishni rag'batlantirish maqsadida 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha asosiy faoliyat turi transport vositalarini quvvatlantirish xizmatini ko'rsatish bo'lgan tadbirkorlik subyektlari foyda solig'idan, mazkur faoliyatdan olingan daromad esa aylanmadan olinadigan soliqdan ozod etilishi belgilangan [7]. Biroq, mazkur imtiyozlar Soliq kodeksiga rasman kiritilmaganligi sababli, tadbirkorlar ushbu yengilliklardan to'laqonli foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shuningdek, 2023-yil 1-apreldan boshlab O'zbekistonda "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida umumiy quvvati 50 kVt gacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatgan fuqarolarga subsidiya ajratish tartibi joriy qilindi [6]. Mazkur dastur asosida quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va shaxsiy iste'moldan ortgan elektr energiyasi yagona elektr energiya tizimiga uzatilganda, har bir 1 kVt/soat elektr energiyasi uchun 1 000 so'm

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-444-sonli qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-6316592>



miqdorida subsidiya Davlat byudjeti hisobidan ajratiladi. Subsidiya miqdori har oyning yakuniga ko'ra, fuqarolar tomonidan yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan va iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmining ijobiy farqi asosida aniqlanadi. Subsidiya olish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi: Fuqaro "Soliq" mobil ilovasidagi "Keshbek va imtiyozlar" bo'limidan "Quyoshli xonadon" xizmatini tanlaydi; Obyektning kadastr raqami kiritiladi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasi avtomatik aniqlanadi; Iste'molchi hisob raqamini kiritadi va ariza yuboradi; Soliq organlari ushbu arizalarni ko'rib chiqib, har oyning 25-sanasi gacha subsidiya to'lovini amalga oshiradi; Subsidiya mablag'lari "Quyoshli xonadon" xizmati orqali fuqaroning bank kartasiga o'tkaziladi. Eng muhimi, subsidiya to'lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydi va daromad solig'i bilan soliqqa tortilmaydi. Bu esa, aholining qayta tiklanuvchi energiyaga o'tishini rag'batlantirishga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. 2023-2024 yillarda fuqarolarga quyosh energiyasi uchun ajratilgan subsidiya to'g'risida ma'lumot [19].

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun to'langan subsidiya mablag'larini tahlil qiladigan bo'lsak, quyosh panellari asosida elektr energiyasini ishlab chiqarib, o'z iste'molidan ortgan qismini yagona elektr energetika tizimiga realizatsiya qilgan jismoniy shaxslar soni 2023-yilda 2 636 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilda 10 826 nafarga yetib, 4,1 baravarga oshgan. O'z navbatida, realizatsiya qilingan elektr energiyasi hajmi 2023–2024-yillar davomida 1 513,4 ming kVt/soatdan 12 180,0 ming kVt/soatga oshgan. Bu esa ushbu davrda 8 martadan ortiq o'sishni anglatadi. Shuningdek, elektr energiyasini realizatsiya qilgan jismoniy shaxslarga to'langan subsidiya mablag'lari 2024-yilda 12 182,0 mln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 10 668,5 mln so'mga yoki 8,0 baravarga ko'paygan. 2024-yilda subsidiyaning eng katta qismi Xorazm viloyati (2,8 mlrd so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,9 mlrd so'm) va Toshkent shahri (1,4 mlrd so'm) hududlariga to'g'ri kelgan [20]. Bundan tashqari, subsidiya to'lovlari daromad solig'i hisobida jami daromadlar tarkibiga kiritilmagani tufayli fuqarolar ixtiyorida 2023–2024-yillar davomida 1 643,4 mln so'm mablag' saqlanib qolgan. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha subsidiya ajratilishi elektr energiyasiga bo'lgan fuqarolarning shaxsiy ehtiyojini qondirish bilan birga, energiya realizatsiyasi hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu esa fuqarolarning iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirib, yashil energetika tizimiga o'tish jarayonini jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda atrof-muhitni asrab qolish va iqlim isishini bartaraf etish masalalari dunyo miqyosidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat tomonidan tabiatni muhofaza qilish va atmosferaning ifloslanishini oldini olish, inson faoliyatining ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda zararli gazlar chiqindilarini pasaytirishga qaratilgan kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, global isish ko'rsatkichi va atmosferadagi karbonat ангидрид (CO_2) chiqindilari



yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa barqaror iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish va aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Bunday sharoitda davlatlar tomonidan tabiatga zarar yetkazishni kamaytirishning muhim omillaridan biri sifatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Soliqlar esa ushbu yo'nalishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim moliyaviy instrumentlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham atrof-muhitni muhofaza qilish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish maqsadida yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda bevosita soliq mexanizmlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish yo'lida bevosita soliqlardan imtiyozlar berilganligi alohida ta'kidlashga loyiq. Fikrimizcha, yashil o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan ushbu imtiyozlar atrof-muhitga zararli chiqindilar hajmining kamayishiga hamda davlat byudjeti daromadlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kelgusida yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotda barqarorlikka erishish, aholi salomatligini yaxshilash hamda yashil energiyani rivojlantirishda bevosita soliqlardan samarali foydalanish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz: Amaldagi tartibda qayta tiklanuvchi energiya manbalari uchun faqat quyosh panellari asosida ishlab chiqarilgan elektr energiyasiga imtiyozlar berilmoqda. Shuning uchun, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish darajasini yanada oshirish maqsadida shamol, suv va bioenergiya manbalari uchun ham bevosita soliqlardan imtiyozlar joriy etish; Yashil energiyani rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish, bu borada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanayotgan tadbirkorlik subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha yengilliklar taqdim etish; Foyda solig'ini hisoblashda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalar uchun tezlashtirilgan tartibda amortizatsiya ajratilishiga ruxsat berish; Transport vositalarini quvvatlantirish xizmatini ko'rsatishdan olingan tushum jami realizatsiyaning kamida 50 foizini tashkil etgan taqdirda, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini foyda solig'idan va mazkur xizmatdan olingan daromadni aylanmadan olinadigan soliqdan ozod qilish ko'zda tutilgan imtiyozlarni Soliq kodeksiga rasman kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" O'RQ-1014-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-57-son qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrda "Elektromobillardan foydalanish infratuzilmasini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-444-son qarori
8. L. Guo, Y. Wang, How does government environmental regulation "unlock" carbon emission effect? – Evidence from China, Chin. J. Popul. Res. Environ. 16 (3) (2018) 232–241.
9. B. Dogan, L.K. Chu, S. Ghosh, H.H.D. Truong, D. Balsalobre-Lorente, How environmental taxes and carbon emissions are related in the G7 economies?, Renew. Ener. 187 (2022) 645–656. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2022.01.077>
10. Porter, M., & Van der Linde, C. (1995). Green and competitive: ending the stalemate. In E.F.M. Wubben, The Dynamics of the Eco-Efficient Economy: Environmental Regulation and Competitive Advantage, 33, 120–134.
11. S. Arogundade, A.S. Hassan. (2024). The path to green economy: Do environmental taxes and renewable energy transition matter in OECD countries? World Development Sustainability, 5 (2024). <https://doi.org/10.1016/j.wds.2024.100189>
12. L.-N. Hao, M. Umar, Z. Khan, W. Ali, Green growth and low carbon emission in G7 countries: how critical the network of environmental taxes, renewable energy and human capital is? Sci. Total Environ. 752 (2021) 141e153.
13. Sarigül, S. S., & Topcu, B. A. (2021). The impact of environmental taxes on carbon dioxide emissions in Turkey. International Journal of Business and Economic Studies, 3(1), 43–54.
14. Hsu, C.-C., Zhang, Y., Ch, P., Aqdas, R., Chupradit, S., Nawaz, A. (2021). A step towards sustainable environment in China: The role of eco-innovation, renewable energy and environmental taxes. J. Environ. Manag. 299. <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2021.113609>
15. I.B. Nath, V.A. Ramey, P.J. Klenow. How Much Will Global Warming Cool Global Growth? (No. w32761), National Bureau of Economic Research, 2024.



16. Bazatli O., Akca H. (2023). The effects of environmental taxes, renewable energy consumption and environmental technology on the ecological footprint: Evidence from advanced panel data analysis. J. Environ. Manag. 345. <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2023.118857>
17. OECD (2022). OECD Investment Tax Incentives Database – 2022 Update: Tax incentives for sustainable development (brochure), OECD, Paris. www.oecd.org/investment/investment-policy/oecdinvestment-tax-incentives-database-2022-update-brochure.pdf
18. World Meteorological Organization. (2025). The State of the Global Climate 2024. <https://wmo.int/news/media-centre/wmo-report-documents-spiralling-weather-and-climate-impacts>
19. <http://www.imv.uz/> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti
20. <http://www.soliq.uz/> – Soliq qo'mitasi rasmiy sayti
21. <https://www.worldbank.org/> – Jahon banki rasmiy sayti
22. <https://www.oecd.org> – OECD rasmiy sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>